

AMERIKADAGI TASAVVUF TA'LIMOTIGA OID ILK ILMIY TADQIQOTLARNING FALSAFIY TAHLILI

Sobirova Asilabonu Aziz qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Ingliz tili - fakulteti 3-bosqich talabasi

Amerikadagi tasavvuf ta'limotining global ahamiyati shundaki, u so'fiylik yo'nalishining kelib chiqishidan tashqari turli etnik va diniy guruhlar orasida tasavvufiy harakatlarning ommalashtirilishi bilan bog'liqdir. Tasavvuf ta'limoti Amerikada islom diniy madaniyatining integratsiyasi va uni tahlil qilishda muhim rol o'ynaydi.

Amerikada tasavvuf ta'limoti va uning falsafiy asoslari haqidagi ilmiy tadqiqotlar, tasavvuf falsafasining o'ziga xos metodlari va shakllari to'g'risida muhim ma'lumotlar taqdim etadi. Bu tadqiqotlarda tasavvuf tuyg'usi, tasavvufiy amallar, tasavvuf tushunchasining diniy asoslari, so'fiylikning tarixiy rivojlanishi va uning jamiyatda o'z o'rnini topishi o'z aksini topgan. Tasavvuf ta'limotining Amerikada globalizatsiya va transdiniy mohiyatning o'rni bilan bog'liq holda ilmiy tadqiqotchilar tomonidan tahlil qilingan va tahlil qilib kelinmoqda. Ushbu tadqiqotlar tasavvufning Amerika ta'lim tizimlari, jamiyat ko'rsatgichlari va qadriyatlarini bilan qay tarzda muvofiq kelishi, tasavvufning insonlar ma'naviy hayotiga qanday ta'sir etishini o'rganish o'ziga xos bir yo'nalishda falsafiy yondashuvlarni rivojlantirishga olib kelmoqda.

Shuni ta'kidlash joizki, Amerikada tasavvuf va shu kabi diniy qarashlarni rivojlantirish maqsadida ta'lim muassasalari ham tashkil etilgan bo'lib, shulardan biri Amerika Islom instituti (American institute of Islamic Studies and culture) hisoblanadi. Ushbu institutda Amerikada tasavvuf ilmining rivojlanishiga va tarixiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar olib boriladi. Bundan tashqari Amerikaning yana bir necha universitetlarining diniy fanlar fakultetlari mavjud bo'lib, ular asosan tasavvuf ta'limoti va uning falsafiy asoslari haqida ilmiy tadqiqotlar olib borish, darsliklar chop etish va konferensiyalar tashkil etish bilan shug'ullanadilar.

Tasavvuf ilmini o'rganish so'fiylik madaniyatida katta ahamiyatga ega bo'lgan va so'fiylikning adabiy-falsafiy qadriyatlarini tushuntirishda muhim o'rinni egallagan "Masnaviy" asari muallifi Mavlono Jaloliddin Rumiyni o'rganish bilan uzviy bog'liq jarayondir. Amerikada Rumiyning so'fiylik ta'limotini o'rganuvchi Coleman Barks, Omid Safi, Kabir Helminskiy kabi ko'plab olimlar bor. Amerikalik tadqiqotchi professor Uilyam Chittik ham shular jumlasidandir. Uilyam Chittik Mavlono Rumiyning so'fiyona qarashlarini G'arb mamlakatlari shu jumladan Amerikada ham keng miqyosda tarqalishiga sabab bo'lgan rumiyshunos mutasavvif olimdir. Uning tadqiqotlari islom falsafasi, tasavvuf va tasavvufga qaratilgan. Chittikning asarlari ham akademik hamjamiyat, ham keng kitobxonlar orasida katta e'tiborga sazovor bo'ldi. Chittikning ayrim asarlarida islom falsafasi va tasavvufning fundamental mavzulari bo'yicha chuqur tahlillar berilgan. Ammo uning eng mashhur

asarlari Mavlono Jaloliddin Rumiyning tasavvufiy va ilohiy ishqqa yo'g'rilgan asarlarini sharhlab, yoritib bergan asarlari hisoblanadi. Uning islom tasavvufi va faylasuflari haqidagi asarlari uning islom olamidan chuqur bilimga ega ekanligini ko'rsatadi. Chittikning arab va fors tillarini bilishi unga islom olamining asosiy manbalariga bevosita kirish imkonini berdi. U tasavvufiy asarlarni ingliz tiliga tarjima qilgan va bu asarlar yuzasidan chuqur tahlillar bergan. Chittik bu sohadagi izlanishlari bilan turli fanlardan o'quvchilarga islom va so'fiylikni tushunishni taklif qildi. Bundan tashqari, u an'anaviy islom bilimlarini zamonaviy akademik usullar bilan uyg'unlashtirgan yondashuvni qo'lladi. Chittikning tasavvuf yo'nalishida qilgan ishlari uning islom olamining tasavvufiy jihatini chuqur anglash va turli auditoriyaga keng qamrovli ko'rinishni taqdim etishga bo'lgan sa'y-harakatlarini aks ettiradi. Uning asarlari islom tafakkuri tarixiga falsafiy va tasavvufiy nuqtai nazarni olib kirib, keng ommani o'ziga tortdi. Uning asarlari, ayniqsa, Rumi, Ibn Arabiy, Mavlono Fuzuliy kabi buyuk islom mutasavviflari asarlarini ingliz tiliga to'g'ri tarjima qilish va tahlil etishga qo'shgan hissasi bilan mashhur. U Rumi she'rlarini, falsafiy fikrlarini atroflicha o'rganib, bu asarlardagi chuqur ma'naviy mavzularni tushuntirib berdi. Chittik ijodi islom tasavvufining umuminsoniy va insoniy jihatini ta'kidlab, bu sohadagi akademik bahslarga katta hissa qo'shgan. Uning ilmiy va o'ziga xos yondashuvi islom dunyosini chuqur anglash istagi bilan parallel. Xullas, Uilyam Chittik islom falsafasi va tasavvuf sohasida yozgan asarlari bilan islom tasavvufini tushunish, talqin qilish va uning o'tmishdan hozirgi kungacha bo'lgan ta'sirida muhim manba bo'ldi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, tasavvuf Amerika jamiyatida ma'naviy erkning vaqtincha materializmga qarshi chiqishi, insonlar orasidagi tolerantlikni rivojlantirishi va o'zaro hurmatni oshirishda asosiy o'rin tutadi. Shuningdek, Amerika jamiyatida boshqa diniy guruhlarining o'zaro muloqot va tajribaga oid o'ziga xos ko'rsatkichlarini rivojlanishiga sabab bo'ladi. Bu, pluralistik jamiyatda muhim bo'lgan umuminsoniy qadriyatlar va ma'naviy qadriyatlar orasida o'zaro bir-birini tushunish va aloqalar tuzilishiga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O.Fayzullayeva. Tasavvuf va badiiy ijod fanidan tayyorlangan o'quv-uslubiy majmua.-Guliston,2021
2. H.Boltaboyev. Islom tasavvufi manbalari(tasavvuf nazariyasi va tarixi).- Toshkent:O'qituvchi,2005,6b
3. https://youtu.be/ZgefNMd6fPU?si=EoDEZXTG_w6lu_ZT
4. <https://www.williamcchittick.com/>
5. [Uilyam Chittik \(wikihre.ru\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/William_Chittick)